TBC BANK

TBC Osmon kredit kartasi
Karta valyutasi - so‘m
Karta turi – World Mastercard
Kredit limiti 50 million so‘mgacha
To‘liq kredit qiymati 50,00% gacha

TBC Osmon kredit kartasi bo‘yicha
TARIFLAR

1. Foiz stavkasi quyidagilar uchun: 1.1. Foizsiz (Imtiyozli) davr mobaynidagi xaridlar 1.2. Xaridlar 1.3. Naqd pul yechish (va unga tenglashtirilgan operatsiyalar) Xaridlar va naqd pul yechib olish uchun foiz stavkalari skoring natijalariga ko‘ra alohida belgilanadi va Shartnomada ko‘rsatiladi. Naqd pul yechib olish hamda unga tenglashtirilgan operatsyalarning batafsil tavsifi Tarifning 1-ilovasida keltirilgan.	 Yillik 0% Yillik 29% dan 50% gacha, Yillik 29% dan 50% gacha
2. Kartaga xizmat ko‘rsatish uchun to‘lov 2.1. kartani chiqarish va yetkazib berish 2.2. oylik kartaga xizmat ko‘rsatish 2.3. kartani qayta chiqarish: 2.3.1. yangi amal qilish muddatiga yoki Bank tashabbusi bilan 2.3.2. Mijoz tashabbusi bo‘yicha	 Bepul Bepul Bepul 50 000 so‘m
3. Karta yoki telefon raqami orqali amalga oshirilgan o‘tkazmalar uchun komissiya Boshqa bank va to‘lov tizimlari ilovalari orqali kredit karta bo‘yicha pul o‘tkazmalari amalga oshirilganda qo‘shimcha komissiya undirilishi mumkin. Komissiya summasi pul o‘tkazish jarayonida ekranda yoki xizmat interfeysida ko‘rsatiladi	Operatsiya summasidan 3%
4. Barcha bankomatlarda naqd pul yechib olish uchun komissiya Naqd pul yechib olish summasidan undiriladi va har bir yechib olish summasining 3 foizini yoki ushbu ikki summadan qaysi biri ko‘proq bo‘lishiga qarab 90 000 so‘mni tashkil etadi. Bankomat egasi bo‘lgan bank tomonidan qo‘shimcha komissiya olinishi mumkin, u bankomat ekranida naqd pul yechib olish vaqtida ko‘rsatiladi.	3%, minimum 90 000 so‘m
5. Naqd pul yechishga tenglashtirilgan to'lovlar (kvazi-kesh) Komissiya, to'lov summasidan undiriladi.	Operatsiya summasidan 3%
6. Minimal to‘lov Bank tomonidan individual tarzda hisoblab chiqiladi va ko‘chirmada ko‘rsatiladi. Agar avvalgi davrlar uchun to‘lanmagan Minimal to‘lovlar mavjud bo‘lsa, ular yangi Minimal to‘lovga kiritiladi. Minimal to‘lovni hisoblash uchun aniq stavka Shartnomada alohida belgilanadi.	Asosiy qarzdan 8% dan ko‘p emas + hisoblangan foizlar.
7. Minimal to‘lov kechiktirilgan taqdirda to‘lov: 7.1. Ikkinchi kundan boshlab muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘yicha oshirilgan foiz 7.2. birinchi kun uchun muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘yicha oshirilgan foiz Qarzni to‘lash sanasida Minimal to‘lov to‘lanmagan taqdirda, oshirilgan foiz Ko‘chirma sanasidan boshlab har kuni muddati o‘tgan asosiy qarz summasiga qo‘shiladi.	 Kuniga 0,4% Muddati o‘tgan asosiy qarz summasidan 10%
8. Kartani to‘ldirish 8.1. TBC UZ mobil ilovasida boshqa kartalardan	 Bepul

8.2. boshqa usullar va hamkorlar orqali	Hamkor komissiyasi

Qo‘shimcha shartlar:

1. Karta to‘lov tizimi - Mastercard. Kartaning amal qilish muddati - 5 yil.
2. Bank hamkorlari orqali kartani to‘ldirishda mablag‘larni kartaga o‘tkazish to‘lov tizimidan tranzaksiya tasdiqlangandan so‘ng (bank kliring natijalarini olgandan keyin) amalga oshiriladi.

Tarifga 1-ilova

POS va CASH operatsiyalarini aniqlash qoidalari

1. **Atamalar.**
   1.1. **POS operatsiyalar (Xaridlar) -** jismoniy yoki virtual terminallar hamda naqd pul operatsiyalari mezonlariga mos kelmaydigan mobil ilovalar orqali tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlar.
   1.2. **Cash operatsiyalar (Naqd pullarni yechib olish) -** ushbu qoidalar bilan belgilanadigan naqd pul yechish va naqd pul yechishga tenglashtirilgan operatsiyalar.
   1.3. **Virtual terminal (ePOS) -** kartalarni o‘qish uchun jismoniy qurilmadan foydalanmasdan onlayn operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan terminal.
   1.4. **MCC-kod (Merchant Category Code) -** terminalga ekvayer tomonidan beriladigan to‘lov tizimidagi terminal toifasini bildiradi.
2. **Naqd pul yechib olishga tenglashtirilgan operatsiyalar ro‘yxati**

Operatsiya turi	MCC operatsiyalar
Bankomatdan naqd yechish	MCC (6010, 6011)
Pul o‘tkazish	MCC (4829, 6531, 6534, 6536, 6537, 6538)
Moliyaviy muassasalar xizmatlarini to‘lash, shu jumladan moliyaviy instrumentlarni xarid qilish	MCC (6012, 6211, 6050, 6051, 6532, 6533, 6535, 9223, 9400, 6540, 6009)
Lombardlar	MCC (5933)
Kazino, qimor o‘yinlari	MCC (7995, 9754)
Soliq va davlat to‘lovlari	MCC (7276, 9311, 9399)
Sug‘urta kompaniyalari xizmatlari	MCC (5960, 6300)
Jarimalarni to‘lash	MCC (9222)

MCC-kod	Kodlar ma‘nosi
4829	Pul o‘tkazmalari
5933	Lombardlar
5960	To‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing – sug‘urta xizmatlari
6009	Mikromoliya tashkilotlari qarzlarini to‘lash
6012	Moliyaviy muassasalar – savdo va xizmatlar
6050	Kvazi-kesh – Moliyaviy muassasalar
6051	Kvazi-kesh – Nomoliyaviy muassasalar
6211	Qimmatli qog‘ozlar bozorida brokerlik xizmatlari
6300	Sug‘urta kompaniyalari xizmatlari
6531	Xizmatlar uchun to‘lov – pul o‘tkazmalari
6532	To‘lov operatsiyasi – moliyaviy muassasa
6533	To‘lov operatsiyasi – sotuvchi
6534	Pul o‘tkazmasi – moliyaviy muassasa
6535	Mulkka doir huquqlar — Moliyaviy tashkilotlar
6536	Kartadan kartaga pul o‘tkazmalari – hisobga olish (mamlakat ichida)
6537	Kartadan kartaga pul o‘tkazmalari – hisobga olish (mamlakatlar aro)

6538	Kartadan kartaga pul o‘tkazmalari – pul yechish
6540	Bankka taaluqli bo‘lmagan oldindan to‘langan kartalar, hisoblarni to‘ldirish
7276	Soliqqa tayyorlash xizmati
9222	Jarimalar
9223	Garovlar va obligatsiyalar bo‘yicha to‘lovlar
9311	Soliq to‘lovlari
9399	Davlat xizmatlari – boshqa toifaga kirmaydigan
9400	Moliyaviy platforma operatorining maxsus hisobiga o‘tkazma
7995	Qimor o‘yinlari
9754	Qimor o‘yinlari – ot poygasi, davlat lotereyasi

3. Mahsulot uchun oziq-ovqat do‘koni yoki restoran terminali orqali to‘lov qilgan holatlarda tranzaksiya CASH operatsiyasi sifatida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan holatlar bo‘ladi. To‘lov amalga oshirilgan terminal ekvayer tomonidan noto‘g‘ri sozlangan bo‘lsa, shunday bo‘lishi mumkin. Agar to‘lov terminali uning haqiqiy maqsadiga mos kelmasa, bank tranzaksiyani to‘g‘ri tasniflash uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Noto‘g‘ri ro‘yxatdan o‘tkazilgan terminallar aniqlangan holatlarda, iltimos, 1150 raqami orqali bankning aloqa markaziga o‘z fikringizni qoldiring. Tekshiruvdan so‘ng, bank ushbu terminalni keyinchalik POS terminal sifatida toifalash uchun uni oq ro‘yxatga kiritishi mumkin.
4. Bank ushbu Ilovaga o‘zgartirishlar kiritish orqali operatsiyalar tasnifini va CASH operatsiyalarini aniqlash qoidalariga qo‘shimchalar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.
5. Ma’lumot uchun, jadvalda CASH va POS operatsiyalariga misollar keltirilgan:

CASH operatsyalari (Naqd pul yechish va unga tenglashtirilgan operatsiyalar)		**POS operatsiyalari** (Xaridlar)
Bankomatdan naqd pul yechish	Kredit to‘lovlari	Do‘konlardagi xaridlar uchun to‘lov
Moliyaviy muassasalar kassasidagi har qanday operatsiya	Depozit, hamyon va boshqalarni to‘ldirish	Internet-do‘konlarda tovar va xizmatlar uchun onlayn to‘lov
Istalgan kartalarga pul o‘tkazish	Kredit to‘lovi uchun avtomat ravishda pul yechib olish	Kafe va restoranlarda to‘lov
Banklarda ro‘yxatdan o‘tgan jismoniy terminallardagi operatsiyalar	Qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar	“Payme” ilovasida QR to‘lovlar
Valyuta ayirboshlash	Pul o‘tkazmalari	Boshqa mobil ilovalarda mahsulot va xizmatlar uchun onlayn to‘lov
Lombard operatsiyalari	Rekvizitlar bo‘yicha to‘lovlar	